

“TASDIQLAYMAN”

Farg‘ona viloyat Statistika

boshqarmasi boshlig‘i

Sh.Mamadaliyev

2025-yil

“17”

anbel6



Investitsiyalar va qurilish statistikasi

boshqarmasi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Farg‘ona viloyat Statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limining (keyingi o‘rinlarda – Bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlar, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qaroriga hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoniga muvofiq tashkil etilgan va Farg‘ona viloyat Statistika boshqarmasining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizomga, Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim faoliyati investitsiyalar va qurilish sohasida rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan, davlat hokimiyati va boshqaruva organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi axborot-statistika tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bo‘lim o‘z faoliyatini viloyat statistika boshqarmasining boshqa tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini viloyat statistika boshqarmasining rahbarligida amalga oshiradi.

Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi vazifalar bo‘yicha viloyat statistika boshqarmasining o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

2-bob. Bo‘limning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) statistika sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, faoliyatni muvofiqlashtirish, funktsional tartibga solish sohasida:

iqtisodiyotdagi investitsiyalar va qurilish hajmlarining statistik hisobini yuritishda qiyosiy tahliliy ma’lumotlarni o‘z muddatlarida sifatlari tayyorlanishini ta’minlash hamda statistik ma’lumotlarni hisobga olish uslubiyotlarini xalqaro standart va qoidalari talablaridan kelib chiqib amaliyotga joriy etib borish, investitsiyalar va qurilish statistikasi sohasida ilmiy asoslangan statistik

metodologiyani va davlat statistika kuzatuvlari olib borish bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

viloyat miqyosida investitsiyalar va qurilish sohasida iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, umumlashtirish va tahlil qilish;

investitsiyalar va qurilish statistikasi doirasida Statistika dasturining bajarilishini ta'minlash;

Viloyat statistika boshqarmasining investitsiyalar va qurilish statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

bo'limga tegishli statistik kuzatuv shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va qo'mitaga kiritishni tashkillashtirish;

e) statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash sohasida:

davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, davlat muassasalari, shuningdek, boshqa foydalanuvchilarni investitsiya va qurilish faoliyatiga tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlash;

investitsiya va qurilish statistikasi masalalari bo'yicha tuman, shahar statistikasi bo'limi xodimlari uchun maslahatlar va seminarlarni tashkil etish.

7. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi investitsiyalar va qurilish statistikasi masalalari bo'yicha o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini samarali amalga oshirish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligini, xolisligini va qiyosiyligini ta'minlaydi, sohaga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash va saqlash tizimini takomillashtiradi;

investitsiyalar va qurilish statistikasi doirasida statistika kuzatuvi shakllari, ularni to'ldirish tartiblari bo'yicha tushuntirishlarni, statistik ko'rsatkichlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qo'mitaga taqdim etadi;

statistik to'plamlar va ma'ruzalar uchun investitsiyalar va qurilish faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlaydi;

Statistika dasturiga muvofiq, boshqarma rahbariyati topshirig'iga asosan, hamda foydalanuvchilarning so'rovleri asosida investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Bo'lim faoliyatiga oid statistika uslubiyotlari, statistika ishlarini tashkil etish masalalari bo'yicha tuman, shahar statistika bo'limlariga yordam ko'rsatadi;

Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalar va funktsiyalarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

3-bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatları

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funktsiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Investitsiyalar va qurilish statistikasi sohasida kuzatuvlarni tashkil etish va uslubiyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha Milliy statistika qo'mitasi, Investisiya va qurilish statistikasi boshqarmasiga takliflar kiritish;

Bo'limga yuklatilgan funktsiyalarni bajarilishi uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni tuman, shahar statistika bo'limlaridan olish;

Bo‘lim vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha Statistika boshqarmasi va bo‘limlari bilan hamkorlik qilish;

idoralar, loyihalarni amalga oshiruvchi korxonalar hamda boshqa davlat tashkilotlaridan bo‘lim vakolatiga kiruvchi statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni, shuningdek, ularga ilova etiladigan tushuntirishlarni so‘rash va olish;

investitsiyalar va qurilish statistikasi uslubiyati va statistika kuzatuvsularini tashkil etishga aloqador bo‘lgan masalalar bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

investitsiyalar va qurilish statistikasiga oid statistika hisobotlarini yig‘ish, ularni qayta ishlash, to‘liqlilagini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

9. Bo‘lim quydagilar uchun javobgar:

o‘ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim bo‘lgan darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlash;

investitsiyalar va qurilish sohasiga oid statistik ma’lumotlarning ishonchliligi, holisligi va to‘liqligini ta’minlash, tashkilot va davlat sirlarining himoya qilinishini ta’minlash;

Viloyat Statistika boshqarmasi tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, bo‘lim xodimlarining ijro intizomini ta’minlash.

4-bob. Bo‘limning tuzilmasi

10. Bo‘limning tuzilmasi o‘z ichiga bo‘lim boshlig‘i va bosh mutaxassisni oladi.

11. Bo‘lim ishiga Bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi.

12. Bo‘lim boshlig‘i va mutaxassislar viloyat statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi.

13. Bo‘lim Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘yicha investitsiya va qurilish statistikasi hisobot ko‘rsatkichlari ma’lumotlarining ishonchliligi, holisligi, to‘liqligi va tizimlilagini ta’minlash;

investitsiya va qurilish statistikasi bo‘yicha ma’ruzalar, tezkor ma’lumotlar, statistik to‘plamlar va bir martalik ma’lumotlarni tayyorlash;

davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, davlat muassasalari, shuningdek, boshqa foydalanuvchilarni investitsiya va qurilish faoliyatiga tegishli ma’lumotlar bilan ta’minlash;

investitsiya va qurilish faoliyati metodologiyasi masalalari bo‘yicha yordam ko‘rsatish;

investitsiya va qurilish statistikasi masalalari bo‘yicha tuman, shaharlar statistika bo‘limi xodimlari uchun maslahatlar va seminarlarni tashkil etish

5-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish

16. Bo‘limning ishi O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonuni, Respublika statistika kengashi tomonidan tasdiqlanadigan yillik Statistika dasturi, Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi to‘g‘risida nizom, investitsiya va qurilish boshqarmasining mazkur Nizomi, Milliy statistika qo‘mitasi raisining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq,

shuningdek, Milliy statistika qo'mitasining ish rejalarini, viloyat statistika boshqarmasining ish rejalarini va bo'lim xodimlarining funksional vazifalarini asosida tashkil etiladi.

Bo'lim ish rejasi viloyat statistika boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadigan viloyat statistika boshqarmasi ish rejasi asosida shakllantiriladi va boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional vazifalarini bo'lim boshlig'i tomonidan bo'linmaga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va boshqarma boshlig'ining o'rribbosari tomonidan tasdiqlanadi.

17. Bo'lim boshlig'i:

Bo'limning faoliyatiga rahbarlik qiladi, ishlarni tashkillashtiradi, bo'limga yuklatilgan vazifa va funktsiyalarni bajarilishi, ijro va mehnat intizomi holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash choralarini bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Bo'limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va boshqarma boshlig'i o'rribbosariga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Bo'lim faoliyatining samaradorligini oshirish va uni kadrlar bilan to'ldirish choralarini ko'radi;

qo'yilgan vazifalar, kelib tushgan hujjatlarni nazorat qilish va ishda tajriba almashish masalalari bo'yicha bo'lim xodimlari bilan instruktiv kengash o'tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi, xodimlarning ishga oid hujjatlar bilan ishlash va ularni saqlanishi bo'yicha belgilangan tartibga rivoja qilishlarini ta'minlaydi;

xodimlarni boshqa lavozimlarga ko'rsatish, o'tkazish va rag'batlantirish, zarur hollarda jazolash chorasi qo'llash to'g'risida rahbariyatga takliflar kiritadi;

Bo'lim ishini tashkil etishni, usuli va uslubini yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi;

xodimlarining lavozim maoshlariga shaxsiy ustamalar belgilash, shuningdek, avvalgi o'rnatilgan ustamalarni kamaytirish yoki bekor qilish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritadi;

Boshqarma rahbariyati tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlarda qatnashadi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalarni muhokama qilishda idoralar, korxona va tashkilotlarda viloyat statistika boshqarmasi nomidan qatnashadi.

bo'lim xodimlari tomonidan yuklatilgan vazifalar, majburiyatlarni zarur darajada bajarilishini ta'minlaydi, ijro va mehnat intizomi holati uchun javob beradi;

Milliy statistika qo'mitasi va bo'limning ish rejalarida ko'zda tutilgan masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

bo'limga yuklangan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarini amalga oshirish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar, tashkiliy chora-tadbirlar yoki nazorat rejalarini tayyorlash va tasdiqlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun kerakli ma'lumotlarni viloyat statistika boshqarmasi (bo'lim)laridan, tegishli korxona va tashkilotlardan oladi;

xodimlar tomonidan bo‘limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallarning davlat va tijorat sirlariga rioya qilinishini va saqlanishini ta’minlaydi;

Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma bo‘linmalari va tuman, shahar statistika bo‘limlariga maslahat yordami ko‘rsatadi;

bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalarni muhokama qilishda idoralar, korxonalar va tashkilotlarda Milliy statistika qo‘mitasi manfaatlarini ifodalaydi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

18. Bo‘lim bosh mutaxassis:

Funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihibarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

statistika kuzatuvi shakllarini, statistik kuzatuv so‘rovnomalarini shakllantirish va ishlab chiqish va mukammallashtirish bo‘yicha ishlarni tashkillashtiradi;

statistik kuzatuv shakllarini, kuzatuv so‘rovnomalarini to‘ldirish bo‘yicha tushuntirishlarni, investitsiya va qurilish statistikasi bo‘yicha uslubiy nizomlarni tayyorlashda qatnashadi;

statistik kuzatuv shakllari bo‘yicha dasturiy ta’minot uchun chiquvchi jadvallarni tayyorlaydi;

viloyat statistika boshqarmasi tomonidan chiqariladigan statistik to‘plamlar jadvallarini to‘ldiradi;

tashkilotlarning investitsiya va qurilish masalalari bo‘yicha tahliliy ishlarni olib borish, investitsiya va qurilish statistikasi masalalari bo‘yicha alohida ma’ruzalar va axborotlar tayyorlaydi;

investitsiya va qurilish statistikasi bo‘yicha boshqarma va bo‘limlarga statistik ma’lumotlar beradi;

muassasalar, korxona va tashkilotlardan kelgan xatlarga javob tayyorlash, investitsiya va qurilish statistikasi bo‘yicha, rahbariyat, tashkilotlarga tushuntirish materiallari tayyorlaydi;

Statistika boshqarmasining tarkibiy bo‘linmalari hamda tuman, shaharlarga investitsiya va qurilish statistikasi metodologiyasi bo‘yicha uslubiy va konsultativ yordam beradi;

investitsiya va qurilish statistikasi bo‘yicha dinamik qatorlarni yuritadi;

o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun kerakli ma’lumotlarni belgilangan tartibda investisiya va qurilish statistikasi boshqarmasidan, viloyat statistika boshqarmasi tegishli bo‘limlaridan, tegishli idoralar va korxonalardan oladi;

statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlab chiqish va chop etish tizimini takomillashtiradi;

chiquvchi hujjatlarni ishlab chiqish muddati va sifatini oshishiga rivoja qiladi;

kiruvchi va chiquvchi ma’lumotlarni nazoratini olib boradi;

ma’lumotlar bazasidan foydalangan holda investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘yicha hisoblashlarni amalga oshiradi;

ishlab chiqarishda yuzaga kelgan savollar bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajaradi;

statistika sohasida davlat sirlarini va alohida statistik ma’lumotlarning maxfiyligini saqlaydi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

19. Bo‘limni qayta tashkil etish, qo‘sib yuborish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.